

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**ISMAGILOV DAMIR KANGANOVICH**

**FUTBOLCHILARNING KO‘P YILLIK TAYYORGARLIGIDA YUKSAK  
ILMIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI ILMIY-PEDAGOGIK  
ASOSLASH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv  
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (DSc)**

**Contents of dissertation of doctor (DSc) on pedagogical sciences**

**Ismagilov Damir Kanganovich**

Futbolchilarning ko‘p yillik tayyorgarligida yuksak ilmiy texnologiyalardan foydalanishni ilmiy-pedagogik asoslash.....3

**Исмагилов Дамир Канганович**

Научно - педагогическое обоснование использования наукоёмких технологий в многолетней подготовке футболистов.....37

**Ismagilov Damir Kanganovich**

Scientific and pedagogical rationale for the use of science-intensive technologies in the long-term development of football player.....75

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....79

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**ISMAGILOV DAMIR KANGANOVICH**

**FUTBOLCHILARNING KO‘P YILLIK TAYYORGARLIGIDA YUKSAK  
ILMIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI ILMIY-PEDAGOGIK  
ASOSLASH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Ped676 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining [www.jtsu.uz](http://www.jtsu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Koshbaxtiyev Ildar Axmedovich</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Xolmuxamedov Rustam Dekanovich</b> pedagogika fanlari doktori, professor <b>Yugay Lev Pavlovich</b> fizika-matematika fanlari doktori, professor <b>Maxmudov Azamjon Muxtarovich</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Abu Rayhon Beruniy nomidagi</b> <b>Urganch davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025- yil “ ” “ ” soat dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, veb-sayt: [www.jtsu.uz](http://www.jtsu.uz), e-mail: [info@jtsu.uz](mailto:info@jtsu.uz). O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy). Tel.: (0-370)-717-17-79, faks: (0-370)-717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “ ” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil “ ” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**R.M.Matkarimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d.(DSc), professor

**M.A.Ibragimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), professor

**A.N.Shopulatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, p.f.d.(DSc), professor

## **Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo futboli kuchlarni jamlash, diqqatning hajmi va taqsimlanishini taqozo etuvchi yuqori shiddat, ham hatakat, ham texnik-taktik harakatlarning kuchli faoliyati, shuningdek, futbolchilarning har tomonlama va universal harakatlari bilan ifodalanmoqda. Buning uchun iqtidorli yoshlarni tizimli va sifatli tayyorlash zarur bo‘ladi. Shu maqsadda, jahon hamjamiyatining turli mamlakatlarida yetakchi professional klublar qoshida professional jamoalar uchun zaxira tayyorlaydigan futbol akademiyalari tashkil etilmoqda. Futbolning jadal rivojlanishi sharoitida ko‘p yillik o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil etishda ilm-fan yutuqlariga asoslangan texnologiyalarni qo‘llash orqali istiqbolli futbolchilarni tayyorlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Zamonaviy akademiyalar yosh o‘yinчилarni nafaqat texnika va taktikaga o‘rgatish, balki jismoniy tayyorgarlik, ruhiy barqarorlik, aqliy rivojlanish va yuqori yuklamalarga moslashishni o‘z ichiga olgan har tomonlama rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda.

Jahon miqyosida turli mintaqalarda iqtidorli sportchilarning ilmiy asoslangan tayyorgarligini ta‘minlovchi tashkilotlar tashkil etilmoqda. Yevropada yosh futbolchilarni rivojlantirish uchun strategik tashkil etish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish bilan shug‘ullanuvchi professional futbol klublari assotsiatsiyasi tashkil etilgan. Professional klublar qoshida katta ma‘lumotlar tizimlari va sun‘iy intellektdan foydalangan holda bir o‘yindagi bir yarim milliongacha qaydlarni qayta ishlash uchun tahliliy bo‘limlar mavjud bo‘lmoqda. Bu o‘yinчилarning harakatlarini, ularning maydonda joylashuvi va texnik-taktik qarorlarning samaradorligini batafsil tahlil qilish imkonini bermoqda. GPS-trekerlar, videotreking va kognitiv mashg‘ulotlar kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish o‘quv-mashg‘ulot jarayonini optimallashtirishga, futbolchilarning jismoniy va aqliy sifatlarini yaxshilashga, jarohatlanish xavfini minimallashtirishga va zamonaviy futbol talablariga javob beradigan universal sportchilarni shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekistonda ta‘lim va sport sohasidagi zamonaviy o‘zgarishlar davlat siyosatida muhim o‘rin tutadigan futbolning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Global raqobat kuchayib, futbol industriyasi oldida turgan yangi muammolar sharoitida o‘quv-mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish va professional kadrlar salohiyatini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda<sup>1</sup>. Yosh futbolchilar va professional futbolchilarni samarali tayyorlash zamonaviy innovatsion texnologiyalar, ilmiy asoslangan usullar va tahliliy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuvlarni qo‘llash sport iste‘dodlarini yuzaga chiqarish, raqobatbardosh jamoalarni shakllantirish va yuqori natijalarga erishish imkonini bermoqda. Fanlararo tadqiqot usullari, shu jumladan tahlil uchun raqamli vositalar va ma‘lumotlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu mashg‘ulot jarayoni sifatini oshirishga yordam bermoqda. Bu borada istiqbolli yosh

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 7-apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

futbolchilarni tayyorlashda ilmiy asoslangan usul va vositalardan foydalanish asosida o'quv-mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirish, professional klub jamoalarini futbol tahlilchisi, sport shifokori, sport psixologi, sport farmakologi, sport seleksioneri, sport yuristi, texnik direktor kabi malakali mutaxassislar bilan ta'minlash futbol taraqqiyotining zamonaviy bosqichining dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-dekabrda PF-5887 "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924 "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi son farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son «Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Dissertatsiyaning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Taqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innavasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda bajarilgan.

**Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Futbol va mini-futbol bo'yicha sport zaxirasining ko'p yillik tayyorgarligi, malakali sportchilarning individual tayyorgarligi masalalari Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universitetida [Moskva, Rossiya Federatsiyasi], Belarus davlat universitetida [BDU], Federal davlat budjet muassasasi „Butunrossiya jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqot institutida [Moskva, Rossiya Federatsiyasi], P.F.Lesgaft nomidagi Sankt-Peterburg milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universitetida [Sankt-Peterburg], Vasil Levski milliy sport akademiyasida [NSA] tadqiq qilingan.<sup>2</sup>

Futbolchilarning tezlik-kuch tayyorgarligini o'rganish va shakllantirish uchun asos sifatida turli malakaga ega o'yinchilarning (o'smirlar, oliy liga jamoalari) musobaqa jarayonidagi texnik-taktik harakatlari hajmi hamda yo'nalishi ko'rsatkichlari aniqlangan [Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti, Rossiya Federatsiyasi]; yosh futbolchilarni texnik-taktik harakatlarga o'rgatish kompleks metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, u ularning asosiy texnik-taktik harakatlarni bajarishlari hamda musobaqa faoliyati natijadorligi va samaradorligini ancha oshirishga, oqibatda, yanada yuqori sport natijasiga erishishga yordam bergan [Belarus davlat universiteti]; koordinatsion qobilyatlari yuqori va o'rtacha darajada

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarning sharhi quyidagi saytlar bazasida amalga oshirilgan: <https://www.sportedu.ru/>, <https://bsu.by/>; <https://www.https://vniifk.ru/>; <http://lesgaft.spb.ru/>; <https://www.nsa.bg/>

rivojlangan o'yinchilar jamoa asosini tashkil qilishi, ularning atrofida o'yinchilarning o'zaro harakatlari tashkil qilinishi ilmiy asoslangan [Federal davlat budget muassasasi „Butunrossiya jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqot insituti“]; futbol sport turida erta ixtisoslashishni inobatga olgan holda futbol uchun ustuvor jismoniy sifatlarni rivojlantirish va texnik tayyorgarlikning kompleks metodikasini qo'llash natijasida 5-7 yoshdagi futbolchilarda texnik tayyorgarlik darajasi va ustuvor jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari dinamikasi aniqlangan va tahlil qilingan [P.F.Lesgaft nomidagi Sankt-Peterburg milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti, Rossiya Federatsiyasi]; tezlik qobiliyatlarini takomillashtirish, futbolda tezlik chidamliligini yaxshilash omili sifatida jismoniy tayyorgarlikning muhim tarkibi tashkil qilingan [Vasil Levski milliy sport akademiyasi].

Sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligi, jumladan, pedagogik tadqiqotlarda innovatsion metodlarni qo'llash muammosiga ko'p ishlar bag'ishlangan. Zamonaviy talablarga to'liq mos bo'lgan o'quv-mashg'ulot faoliyati nazariy bilimlarni amaliy yo'nalish bilan birga berishni nazarda tutadi, bunda texnik usullar va taktik harakatlarni o'rgatish hamda takomillashtirishni ta'minlaydigan faol va interfaol metodlar keng qo'llaniladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Vatanimiz olimlari P.A.Akramov, R.I.Nurimov, I.A.Koshbaxtiyev, J.T.Iseyev futbolchilarning integral tayyorgarligini rivojlantirishda mashg'ulot yuklamalarini tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarini mashg'ulot jarayonini boshqarishga joriy etish yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar. Alohida sport turlari bo'yicha sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik texnologiyasi kurash bo'yicha F.A. Kerimov, yakkakurashchilar misolida R.D. Xalmuxamedov, dzyudo bo'yicha O.J. Dadaboyev, og'ir atletika bo'yicha K.F. Bayazitov, R.M. Matkarimov tomonidan to'liq o'rganilgan.<sup>3</sup> Sport o'yinlari bo'yicha bunday tadqiqotlar o'tqazilmagan.

L.V. Bayborodova, A.T. Chernovskaya, V.I. Balandin, Yu.M. Bludov, V.A. Plaxtiyenko, G.A. Rymashyevskiy, P.M. Priluskiy, V.K. Ganestova, N.V. Ivanova, L.V. Filipovich, I.I. Ignatova, A.I. Nexvyadovich, M.K. Borshch, Ye.V. Xromenkova

---

<sup>3</sup> Ф.А. Керимов Методика обучения сложным технико-тактическим действиям в вольной борьбе: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.04. - Москва, 1983. - 179 с.: ил; Исеев, Ш. Т. (к. п. н.). Особенности динамики нагрузки в межигровых циклах подготовки футболистов в условиях жаркого климата: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Исеев Шамиль Тагирович. - М., 1985. - 19 с. - Библиогр.: с. 19 (4 назв.); Акромов Р.А. Игровые тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Т. Абу Али ибн Сино. - 2000.-135 с; Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов Т. 2001 – 108С; Нуримов Р.И. Ёш футболчиларни техник ва тактик тайёрлаш. Ўқув қўлланма. ЎзДЖТИ нашриёт-матбаа бўлими, 2005. 105 б. Кошбахтиев И.А., Нуримов Р.И. Программирование подготовки футболистов высокой квалификации. Ташкент. 2005. –120 с; Нуримов Р.И, Футбол назарияси ва услубияти Дарслик. Илмий Техника ахборот Пресс нашриёти, 2015.-364 б; Исеев Ш.Т., Ахматджанов У.М., Талипджанов А.И. Физическая подготовка футболистов. Ташкент, 2018. — 172 с; Исеев Ш.Т. Анализ эффективности соревновательной деятельности футболистов в зависимости от уровня их физической подготовленности//Респуб. научно-практическая конференция «Тенденции развития современного футбола: проблемы и пути их решения». Ташкент. 2020. С. 6-11. Р.Д. Халмухамедовым на примере единоборцев. Технология управления подготовкой высококвалифицированных спортсменов в олимпийском цикле.: дисс... д-ра пед.наук – Ташкент – 2004. – 276 с; О.Ж. Дадабаев Концепция многолетней подготовки дзюдоистов. дисс. докт (Dsc) по пед. наукам. Чирчик. 2021. 212 с.; К.Ф. Баязитовым Совершенствование управления многолетней подготовкой тяжелоатлетов: дисс. докт. (Dsc) по пед.наукам. Чирчик. 2021. 272с.; Р.М. Маткаримов Научно – теоретические основы многолетней подготовки высококвалифицированных тяжелоатлетов. дисс. докт. (Dsc) по пед.наукам. Чирчик. 2021. 212с.

kabi kompetentli mutaxassislar bioimpedans metodining qo'llanilishiga yangi bilimlar olish, tadqiqot obyektlari tavsiflarini takomillashtirish yoki ularni boshqarish maqsadida tana tarkibini o'rganishga asoslangan ilmiy tadqiqot metodi sifatida qarashadi. Taniqli yetakchi mutaxassis V.N. Platonov shuni e'tirof etadiki, zamonaviy metodlarning qo'llanilishi sportchilar ko'p yillik tayyorgarligining samarali texnologiyasini asoslash imkonini beradi. Mualliflar o'z ishlarida bioimpedans metodidan foydalanib, tana tarkibini o'rganishgan, bu sportchilar tayyorgarligini boshqarish samaradorligini ancha oshiradi.<sup>4</sup>

Futbolchilarning ko'p yillik tayyorgarligida texnologiyalarni o'rganish sohasida turli yo'nalishlar: sport fani, fiziologiya, biomexanika, psixologiya, taktik tahlil va IT sohasining xorijiy mutaxassislari faol ish olib bormoqdalar (Kai-Vu Xiong, Hui He, Yi-Ming, Guo –XinNi, A. Mark Williams, Paul Ford, Barry Drust. Zhengyu Li, Póvoas S, Krstrup P, Castagna C)<sup>5</sup>.

Hozirgi vaqtda bioimpedans metodi, ilmiy-tadqiqot metodi sifatida, turli yoshdagi, har xil malakaga ega va har xil sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarning tana tarkibini aniqlash maqsadida joriy qilinmoqda.

Ayni paytda ta'kidlash joizki, mualliflar yosh futbolchilarning individual va ko'p yillik tayyorgarligini qarab chiqayotib, zamonaviy metodlardan foydalanishmagan, shuningdek, sport mahorati shakllanishining turli bosqichlarida ularni joriy etish borasida tadqiqotlar olib borishmagan. Shunday qilib, yuqorida bayon qilinganlar ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida (sport-sog'lomlashtirish, boshlang'ich tayyorgarlik, o'quv-mashg'ulot guruhi, sport mahoratini takomillashtirish va oliy sport mahorati) yuksak texnologiyalarni asoslash va ulardan foydalanish muammolarini hal qilishga mos keladi. Ilmiy-metodik adabiyotlarda zamonaviy tadqiqot metodlarini qo'llagan holda sportchilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimining asosiy qoidalarini oydinlashtirishga imkon beruvchi katta tadqiqot materiali mavjud.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2020-2025 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasiga

<sup>4</sup> Баландин, В.И. Прогнозирование в спорте /В.И. Баландин, Ю.М. Блудов, В.А. Плахтиенко. - М.: Физкультура и спорт, 1986. - 193 с.Рымашевский Г.А., Прилуцкий П.М., Ганестова В.К., Иванова Н.В., Филипович Л.В., Игнатова И.И., Нехвядович А.И., Борщ М.К., Хроменкова Е.В. Комплексный контроль подготовленности футболистов. // Методические рекомендации. Минск. 2004. – 87с; Байбородова Л.В., Чернявская А.П. Педагогические технологии. В 3 ч. Часть 1. Образовательные технологии: учебник и практикум для академического бакалавриата / под общ. ред.— 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2018. — 258 с. — (Серия: Образовательный процесс); Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения: учебник [для тренеров]: в 2 кн. /В. Н. Платонов. — К.: Олимп. лит., 2015. — Кн. 1. — 2015. — 680 с.: ил.

<sup>5</sup> Kai-Vu Xiong, Hui He, Yi-Ming, Guo –Xin Ni. Analyses of body composition charts among younger and older Chinese children and adolescents aged 5 to 18 years. BMC. Public Health. 2012; 12: 835 -844. Doi. 10.1186/1471-2458-12-835. Soccer Developing Elite Performers Edited By A. Mark Williams, Paul Ford, Barry Drust. Li, Z. (2014). Research on the Application of Polar Heart Rate Meter in the Football Training. In: Zhong, S. (eds) Proceedings of the 2012 International Conference on Cybernetics and Informatics. Lecture Notes in Electrical Engineering, vol 163. Springer, New York, NY. [https://doi.org/10.1007/978-1-4614-3872-4\\_237](https://doi.org/10.1007/978-1-4614-3872-4_237). Póvoas S, Krstrup P, Castagna C (2023) Validity and sensitivity of field tests' heart-rate recovery assessment in recreational football players. PLoS ONE 18(3): e0282058. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0282058>

muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi terma jamoalarida yuqori malakali sportchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sport mahoratini shakllantirishning turli bosqichlarida futbolchilarni tayyorlashning ilmiy texnologiyalaridan foydalanishni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash bo‘yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yuksak texnologiyalarni qo‘llagan holda sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligining nazariy va amaliy jihatlarini ko‘rib chiqish;

bioimpedans metodini qo‘llash asosida futbolchilarning tana kompozitsion tarkibini aniqlash, har tomonlama harakat tayyorgarligini samarali amalga oshirish maqsadida “Omega-S” telemetrik tizimi ko‘rsatkichlaridan foydalanish asosida futbolchilarning funksional holatini o‘rganish;

futbolchilarning texnik-taktik harakatlari darajasini aniqlashga yordam beradigan “Polar Team2” firmasining yurak ritmi monitори va “Instat” tahliliy tizimi ma‘lumotlaridan foydalangan holda mashg‘ulotlar va musobaqalar jarayonida futbolchilarning harakatlanish zonalari ko‘rsatkichlarini aniqlash;

tayyorgarlik darajasi har xil bo‘lgan futbolchilarning yuqori shiddatli mashg‘ulot jarayonini tashkil qilish va o‘tkazishni ta‘minlash imkonini beradigan, aerob-anaerob, anaerob ish rejimlarida bajariladigan, koordinatsion murakkabligi, tomir urish qiymati kattaligi, jismoniy va texnik-taktik tavsiflari turli xil bo‘lgan maxsus mashqlar tasnifini (A,B,S modellar) ilmiy asoslash hamda mashg‘ulot amaliyotiga taklif etish;

so‘rovnomalar asosida shaxsiy tavsiflarni inobatga olgan holda futbolchilarning psixologik tayyorgarlik modelini o‘rganish hamda bu har bir sportchiga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish;

jismoniy rivojlanish, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ma‘lumotlari hamda yuksak texnologiyalar ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan, futbolchilarning har tomonlama tayyorgarligini monitoring qilish asosi sifatida zamonaviy tadqiqot metodlaridan iborat bo‘lgan futbolchilarning sport mahoratini shakllantirish bosqichidagi model tavsiflarni ishlab chiqish, baholash natijalari bilan taqqoslash aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘nalishini belgilash.

**Tadqiqotning obyektini** tayyorgarlik bosqichlariga (boshlang‘ich tayyorgarlik, o‘quv-mashg‘ulot guruhlari, sport takomillashuvi, oliy sport mahorati) mos holda futbolchilarning sport mahoratini shakllantirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** sport mahoratini shakllantirish bosqichlarida yuksak texnologiyalarning qo‘llanilishi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda mahalliy va xorijiy muallifflarning ilmiy-nazariy adabiyotlari tahlili, mutaxassislar tajribasini umumlashtirish, pedagogik tajribalar, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik testlash, futbolchilarning musobaqa va mashg‘ulot faoliyati jarayonidagi harakatlanishlari va texnik-taktik harakatlarni bajarishlarini qayd etuvchi «Instat» maxsus kompyuter dasturi, o‘yin faoliyati davomida yurak urish sur‘atini shiddat zonalari bo‘yicha (aerob, aerob-anaerob, anaerob) qayd etuvchi “Polar Team2” firmasining yurak ritmi monitiri, tana kompozitsion tarkibini aniqlab beruvchi bioimpedans metodi (BIA) “Omega-S”

telemetrik tizimini qoʻllagan holda futbolchilarning funksional holatini baholash, psixologik soʻrovnomalar (shaxslashtirilgan yondashuv uchun Ya.Strelyau, G.Ayzenk, M.Lyusher psixologik soʻrovnomalari), Oʻzbekiston Respublikasi Futbol Assosiyatsiyasi tomonidan tasdiqlangan nazorat meʼyorlari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

zamonaviy futbol talablari bilan bogʻliq holda sport mahoratini shakllantirish koʻp yillik tayyorgarlikning barcha bosqichlarida zamonaviy tadqiqot usullaridan iborat boʻlgan yuksak texnologiyalardan foydalanish orqali murabbiylarning mashgʻulot jarayonlarini oqilona tashkil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

sport mahoratini shakllantirish bosqichida futbolchilarni muvaffaqiyatli tayyorlash uchun tananing kompozitsion tarkibi, funksional holatni belgilovchi maʼlumotlardan (jismoniy yuklamalarga moslashish darajasi, mashqlanganlik darajasi, jismoniy holati, sport formasi, organizm zaxirasi, tananing yogʻ massasi, psixoemotsional holat) foydalanish orqali yuklamalarni individuallashtirish jarayoni optimallashtirilgan;

himoyada, hujumda bir taym ichidagi vaqt boʻlaklarida oʻyinchilarda yurak urishi maʼlumotlarini nazorat qilish bilan oʻyin faoliyatini baholash hamda musobaqa faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali futbolchilarning oʻquv-mashgʻulot va musobaqa faoliyatidagi oʻyin samaradorligini oshirish imkoniyati kengaytirilgan;

futbolchilarning koʻp yillik tayyorgarlik bosqichlarida oʻyin faoliyatidagi hujum harakatlarini rivojlantirish maqsadida sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish, A,B,C modellarning maxsus mashqlari tasnifini ishlab chiqish hisobiga anaerob sharoitlarda texnik-taktik harakatlarni takomillashtirilgan;

har bir futbolchining psixologik tayyorgarligini oshirish uchun alohida iqtidorini inobatga olgan holda individuallashtirilgan yondashuvni qoʻllash orqali oʻyin jarayonida yuzaga keladigan stressli vaziyatlarda toʻpni yuqori samaradorlik bilan boshqarish koʻnikmalari rivojlantirilgan;

koʻp yillik tayyorgarlikning har bir bosqichida jismoniy rivojlanish, jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, tana tarkibi maʼlumotlari va musobaqa faoliyati koʻrsatkichlaridan iborat ishlab chiqilgan model tavsiflar monitoring bazisini qoʻllash hisobiga futbolchilarning har bir bosqichda tegishli normativlarni bajarish qobiliyatlarini nazorat qilish imkoniyatlari kengaytirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

boshlangʻich tayyorgarlik bosqichida yosh futbolchilarning sogʻlomlashtirish-tarbiyaviy ishlari boʻyicha tavsiya va takliflar hamda model tavsiflari ishlab chiqilgan;

oʻquv-mashgʻulot guruhlari bosqichida bioimpedans (BIA) metodini qoʻllash asosida futbolchilar tanasining kompozitsion tarkibi; «Omega-S» telemetrik tizimi yordamida futbolchilarning funksional tayyorgarligi parametrlari (jismoniy yuklamalarga moslashish darajasi, tayyorgarlik darajasi, jismoniy holati, sport formasi, organizm zaxirasi, tanadagi yogʻ massasi, psixoemotsional holati) aniqlangan;

ilmiy asoslangan usullardan foydalanish («Instat» kompyuter dasturi, «Polar Team2» yurak ritmi monitori) futbolchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishga yordam berishi aniqlangan;

G.Ayzenk, Ya.Strelyau va M.Lyusher so‘rovnomalari asosida qo‘zg‘alish va tormozlanish parametrlari, asab jarayonlarining harakatchanligi aniqlangan, bu, umuman olganda, har bir sportchiga shaxsiy yondashuvni amalga oshirish imkonini bergan;

«Polar Team2» firmasining yurak ritmi monitori ma‘lumotlaridan foydalanib, mashg‘ulot va musobaqalar jarayonida futbolchilarning harakatlanish zonalari ko‘rsatkichlari aniqlangan;

sport takomillashuvi, oliy sport mahorati bosqichlarida sportchilarning texnik-taktik harakatlari darajasini aniqlash va ular asosida o‘yinni olib borish ahamiyatligini hisobga olgan holda taktik sxemalarga tuzatishlar kiritish imkonini beruvchi «Instat» tahliliy tizimdan foydalanib, futbolchilarning musobaqaga tayyorgarlik darajasi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining obyektivligi, ishonchlligi tajriba ishlarining mantiqiy ketma-ketligi, zamonaviy tadqiqot metodlarining qollanilganligi, ilmiy o‘rganishning yagona metodologik asosga qurilganligi, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vatanimiz hamda chet el olimlarining fikir-mulohazalariga tayanilganligi, tajriba ishlarining yetarli hajmi va zarur davomiyligi, tajriba ma‘lumotlarining yosh va sifat jihatidan tahlil qilinganligi, tadqiqot vazifalariga mos metodlarning qo‘llanilganligi, saylanmalarning reprezentativligi, olingan ma‘lumotlarni ishlab chiqishda matematik-statistik tahlil qilish metodlarining qollanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarning tayyorgarligini tadqiq etishning zamonaviy usullaridan iborat ishlab chiqilgan yuksak texnologiyalar futbolchilarning sifatli tayyorgarligini oshirishga yordam beradi, ko‘rsatkichlarni har tomonlama tayyorgarlikning model tavsiflari ma‘lumotlari bilan taqqoslash, ilmiy asoslangan tuzatishlarni kiritish, o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga vosita va usullarni joriy etishga imkon yaratadi, bu esa pirovardida tayyorgarlik samaradorligini ta‘minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, futbolchilarning ko‘p yillik tayyorgarligini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mashg‘ulot jarayonini qurishning ratsionalligini baholashning obyektiv mezonlarini ishlab chiqish, har bir bosqichda sportchilarning tayyorgarlik darajasini yuksak texnologiyalarni qo‘llagan holda amaliy aniqlash ushbu muammoning tadqiqot nuqtai nazaridan muhim jihatidir. Aynan shu jihatlar futbolchilarning ko‘p yillik tayyorgarligini shakllantirish muammosida o‘z aksini topadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** sport mahoratini shakllantirishning turli bosqichlarida futbolchilarni tayyorlashning ilmiy texnologiyalaridan foydalanishni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash bo‘yicha amaliy tavsiyalarni joriy etish yuzasidan o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

zamonaviy futbol talablari bilan bog'liq holda sport mahoratini shakllantirish ko'p yillik tayyorgarlikning barcha bosqichlarida zamonaviy tadqiqot usullaridan iborat bo'lgan yuksak texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar Toshkent tumani sport maktabi o'quv-mashg'ulot guruhi sportchilarining mashg'ulot jarayonlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 6.03.2023-yildagi № 04-01/04/20/1993 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, musobaqa faoliyati jarayonida anaerob rejim harakatlarni bajarish ko'rsatkichlari 10-17% ga yaxshilangan;

sport mahoratini shakllantirish bosqichida futbolchilarni muvaffaqiyatli tayyorlash uchun tananing kompozitsion tarkibi, funksional holatni belgilovchi ma'lumotlardan (jismoniy yuklamalarga moslashish darajasi, mashqlanganlik darajasi, jismoniy holati, sport formasi, organizm zaxirasi, tananing yog' massasi, psixoemotsional holat) foydalanish Toshkent tumani sport maktabi o'quv-mashg'ulot guruhlari futbolchilarining mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 6.03.2023-yildagi № 04-01/04/20/1993 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, 13 yoshli futbolchilarning tana tuzilishi ma'lumotlari tahlili yog' komponentining 11-12 % ga yaxshilangan;

himoyada, hujumda bir taym ichidagi vaqt bo'laklarida o'yinchilarda yurak urishi ma'lumotlarini nazorat qilish bilan o'yin faoliyatini baholash hamda musobaqa faoliyatini kompleks tahlil qilish "Paxtakor" jamoasining mashg'ulot jarayonlariga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 6.03.2023-yildagi № 04-01/04/20/1993 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, to'pni uzatish samaradorligi 16 % ga oshgan;

futbolchilarning ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o'yin faoliyatidagi hujum harakatlarini rivojlantirish maqsadida sakrovchanlik qobiliyatini rivojlantirish, A,B,C modellarning maxsus mashqlari tasnifi bo'yicha takliflar «Paxtakor» PFK futbol jamoasiga hamda Toshkent tumani sport maktabi futbol jamoasiga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 6.03.2023-yildagi № 04-01/04/20/1993 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, o'z yosh toifasida O'zbekiston Respublikasi chempioni, «Paxtakor» PFK 2019-2022-yilgi O'zbekiston Respublikasi chempionatining Superligasi chempioniga aylangan;

har bir futbolchining psixologik tayyorgarligini oshirish uchun alohida iqtidorini inobatga olgan holda individuallashtirilgan yondashuvni qo'llash bo'yicha tavsiyalar «Metallurg» jamoasi, «Paxtakor» PFK futbol jamoasiga hamda Toshkent tumani sport maktabi futbol jamoasi o'tkazilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 6.03.2023-yildagi № 04-01/04/20/1993 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, Ya.Strelyauning so'rovnomasi asosida «Metallurg» jamoasida 15 nafar futbolchidan oltitasi (40%) Gippokratning tiplar tasnifiga ko'ra flegmatik, uchtasi xolerik (20%), to'rttasi sangvinik (26,6%) va ikkitasi melanxolik (13,4%) tipiga mansubligi aniqlandi, shaxslashtirilgan yondashuvni qo'llashga yordam bergan;

ko'p yillik tayyorgarlikning har bir bosqichida jismoniy rivojlanish, jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, tana tarkibi ma'lumotlari va musobaqa faoliyati ko'rsatkichlaridan iborat ishlab chiqilgan model tavsiflar monitoring bazisini qo'llash

bo'yicha tavsiyalar Toshkent tumani sport maktabi o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 6.03.2023-yildagi № 04-01/04/20/1993 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, A, B, S maxsus mashqlarni qo'llash natijasida quyidagi ko'rsatkichlar yaxshilangani kuzatildi: to'p bilan 30 metrga yugurish vaqti 8,67 % ga qisqardi, ustunlarni aylanib o'tish muddati 8,34 % ga kamaydi; 10 metrga yugurish tezligi 16,07 % ga, joyida turib uzunlikka sakrash natijasi esa 11,78 % ga yaxshilangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy-metodik ish, jumladan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya qilingan jurnallarda 10 ta maqola, shulardan xorijiy jurnalda 3 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi 198 sahifadan iborat matnda bayon qilingan, kirish, oltita bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, 262 manbani o'z ichiga olgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya 49 ta jadval, 2 ta rasm bilan yoritilgan, 4 ta joriy etish dalolatnomalari ilova qilingan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarning sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligining nazariy va amaliy jihatlari**» deb nomlangan birinchi bobida sport-sog'lomlashtirish va boshlang'ich tayyorgarlik bosqichlarida bolalar tayyorgarligi bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muammosi yuzasidan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilingan. Ushbu bosqichda ishlab chiqilgan sog'lomlashtirish va tarbiya texnologiyalaridan foydalanish zarurligi isbotlangan. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida harakat imkoniyatlarini kengaytirish va harakat faolligini kompensatsiya qilish tavsiya etiladi.

Model tavsiflarni ishlab chiqish sportchilarni tayyorlash jarayonini boshqarish uchun asos sifatida qaraladi. V.I.Balandin, Yu.M.Bludov va V.A.Plaxtiyenkolar kasbiy muhim sifatlarning konservativlik darajasiga ko'ra tasnifini taklif qilganlar:

Konservativ sifatlari: anatomik-morfologik ko'rsatkichlar, oliy asab faoliyati (OAF) tipi, psixofiziologik va fe'l-atvorga xos xususiyatlar.

Oraliq sifatlari: salomatlik holati, texnik tayyorgarlik, sensomotorika.

Labil sifatlari: psixologik tayyorgarlik, UJT, MJT, taktik tayyorgarlik, energetik daraja.

A.D.Novikov va N.G.Ozolin tayyorgarlik jarayonini boshqarish vositasi sifatida model tavsiflarni shakllantirish imkonini beruvchi modellashtirish usulidan foydalanish zarurligini ta'kidlaganlar.

Turli sport turlarida model tavsiflarining o'ziga xos xususiyatlari. M.S.Brill sportchi-o'yinchilar uchun nafaqat vazn-bo'y ko'rsatkichlari, balki psixofiziologik xususiyatlar: sensomotor reaksiyalar, tezkor fikrlash, diqqat xususiyatlari ham muhim ekanligini ta'kidlagan. Qilichbozlar uchun reaksiya tezligi, asab tizimining harakatchanligi, tezkor xotira, diqqatning barqarorligi kabi psixik va psixomotor sifatlarga ustuvorlik beriladi. Suzuvchilarda koordinatsion qobiliyatlar, antropometrik ko'rsatkichlar, tezlik va egiluvchanlik ustunlik qiladi. Reaksiya tezligini tarbiyalash konsepsiyasi doirasida birinchi marta bir nechta sport o'yinlarini birlashtirdi, bu esa turli sport turlariga yondashuvlarning o'xshashligini ko'rsatadi.

Sportchilarni tayyorlashda yuksak texnologiyalarning ahamiyati.

Zamonaviy usullardan (masalan, sensorli texnologiyalar, monitorli tizimlardan) foydalanish ko'p yillik tayyorgarlikning muhim elementiga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar quyidagilarni ta'minlaydi: sportchilarning funksional holatini monitoring qilish, mashg'ulot jarayonini individual xususiyatlarga moslashtirish, innovatsion yondashuvlarni, sog'lomlashtirish va tarbiya texnologiyalarini joriy etish orqali motivatsiyani oshirish.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida quyidagilarga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqildi: jismoniy kamchiliklarni tuzatish, o'yin va musobaqa usullaridan foydalangan holda harakat faolligini oshirish vazifalari hal etildi.

Sport bilan shug'ullanishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish.

R.D.Xalmuxamedov nafaqat joriy tayyorgarlikni, balki sportchilarning potensial imkoniyatlarini ham hisobga oluvchi model tavsiflarning ahamiyatini e'tirof etadi.

V.N. Platonov boshlang'ich, bazaviy tayyorgarlik, chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv, sport takomillashuvi va sportda uzoq umr ko'rish bosqichlaridan iborat ko'p yillik tayyorgarlikning aniq tuzilmasi zarurligini ta'kidlaydi.

O'rganilgan manbalar asosida model tavsiflar biologik va genetik omillarni hisobga olishi kerakligi aniqlandi, bu ayniqsa har bir sportchiga individual yondashuvni shakllantirish uchun muhimdir.

Bobda sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligi turli jihatlar: fiziologik, psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlarining integratsiyasiga qurilishi kerakligi ta'kidlanadi. Sportchilarning yosh va malakaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy asoslangan texnologiyalardan foydalanish, moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish ularning mashg'ulot jarayonini samarali boshqarishga zamin yaratadi.

Model tavsiflarni ishlab chiqishning ahamiyati yuqori sport natijalariga erishish istiqbollari belgilab beruvchi asosiy elementga aylanadi.

Ushbu yondashuvlar, ayniqsa, yosh futbolchilar uchun dolzarb bo'lib, ularning tayyorgarligini aniq modellashtirish natijani muddatidan oldin oshirib yuborishdan qochishga imkon beradi va sportchining uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda vositalar va usullarni asoslash”** deb

nomlangan ikkinchi bobida bolalar uchun ishlab chiqilgan dastur va sog'lomlashtirish, ta'lim texnologiyalari keltirilgan.

Sport maktabi negizida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh futbolchilar bilan tasdiqlovchi va shakllantiruvchi tajribalar o'tkazildi (1- jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida nazorat va tajriba guruhlaridagi yosh futbolchilarning (8-10 yosh) UJT va MJT ni baholash natijalari (n=20)

Tajriba boshida									
T/r	Jismoniy ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			Statistik xulosa	
		$\bar{X}$	$\sigma$	V %	$\bar{X}$	$\sigma$	V %	t	P
1	10 m ga yugurish (s)	2,51	0,11	4,38	2,53	0,12	4,74	0,55	>0,05
2	30 m ga yugurish (s)	6,65	0,25	3,76	6,57	0,38	5,78	0,79	>0,05
3	3x10m ga mokisimon yugurish	9,23	0,37	4,01	9,27	0,49	5,29	0,29	>0,05
4	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	135,8	10,43	7,68	134,6	12,08	8,97	0,34	>0,05
Tajriba oxirida									
T/r	Jismoniy ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			Statistik xulosa	
		$\bar{X}$	$\sigma$	V %	$\bar{X}$	$\sigma$	V %	t	P
1	10 m ga yugurish (s)	2,43	0,12	4,94	2,31	0,15	6,49	2,79	<0,05
2	30 m ga yugurish (s)	6,43	0,33	5,13	6,14	0,53	8,63	2,08	>0,05
3	3x10m ga mokisimon yugurish	9,06	0,44	4,86	8,72	0,51	5,85	2,26	<0,05
4	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	141,4	11,46	8,11	152,0	14,02	9,22	2,62	<0,05

Pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi bir-biridan sezilarli farq qilmadi ( $P > 0,05$ ). Pedagogik tajriba oxirida mutlaqo boshqacha manzara kuzatildi. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, pedagogik tajribadan so'ng nazorat va tajriba guruhlarining 10 metr ga yugurish natijalari  $P \leq 0,05$  ( $t = 2,79$ ) darajasida ishonchli farqlarga ega bo'ldi. Shuningdek, 3x10 metr ga mokisimon yugurishda ham  $P \leq 0,05$  ( $t = 2,26$ ) darajasida ishonchli farqlar kuzatildi. Turgan joydan uzunlikka sakrashda statistik ishonchli farqlar aniqlandi  $p \leq 0,05$  ( $t = 2,62$ ), 30 metr ga yugurishda esa statistik ishonchli farqlar aniqlanmadi  $p > 0,05$  ( $t = 2,08$ ) (1-jadvalga qarang).

### 2-jadval

#### Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh futbolchilarning model tavsiflari

T/r	Jismoniy rivojlanish ma'lumotlari	Natijalar
1	Tana massasi (kg)	30,28
2	Tana uzunligi (sm)	133,3
<b>Jismoniy tayyorgarlik va o'yinda fikrlash</b>		

1	30 m ga yugurish (s)	6,14
2	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	148
3	3×10m ga mokismon yugurish	8,72
4	10 m ga yugurish (s)	2,35
5	O'yinda fikrlash	5,4,3
6	O'yinda tajovuzkorlik	5,4,3

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlariga saralashda ko'rsatkichlar majmui aniqlandi:

1. Tezlik-kuch sifatlarini baholash uchun 30 m ga yugurish qabul qilinadi.
2. Tezlik-kuch imkoniyatlarini baholash ikki oyoqda deysinib yuqoriga sakrash bilan aniqlanadi.
3. Epchillik ko'p jihatdan texnik mahoratning keyingi darajasini belgilaydi. Saralashda umumiy chidamlilikni ham, maxsus chidamlilikni ham hisobga olish zarur. Umumiy chaqqonlikni aniqlash uchun aldamchi harakatlar testini qo'llash kerak.
4. Maxsus koordinatsiya to'p bilan dribling (5 ta aylanani aylanib o'tish) bo'yicha baholanadi.
5. Tafakkurni tashxislash va yo'naltirish ekspert daholash metodi yordamida amalga oshiriladi
6. O'yindagi tajovuzkorlik va jangovarlik sifatleri murabbiylar, ekspertlar tomonidan ekspert baholash yordamida baholanadi.

Ikkinchi bobning yakunida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh futbolchilarning ishlab chiqilgan model tavsiflari keltirilgan (2-jadvalga qarang).

**Dissertatsiyaning “O'quv-mashg'ulot guruhleri bosqichida zamonaviy tadqiqot metodlarining (bioimpedans metodi (tana tarkibini aniqlash), “Polar Team2” firmasining yurak ritmi monitori qo'llanilishini asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida biologik to'qimalarning elektr o'tkazuvchanligini o'lchashning kontaktli usulini ifodalovchi bioimpedans metodi bilan o'quv-mashg'ulot bosqichidagi yosh futbolchilarning tana tarkibi parametrlari tahlili ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, bu metod bugungi kunda organizmning keng ko'lamli morfologik va fiziologik parametrlarini baholash imkonini beradi. Bioimpedans metodi o'z amaliyotida turli mutaxassisliklar shifokorlari: diyetologlar, endokrinologlar muvaffaqiyatli qo'llab kelishadi. Bioimpedansometriya ma'lumotlari asosida quyidagi ko'rsatkichlar baholanadi: ideal vaznning individual qiymatlari; to'qima yog' massasining kilogramm va foizlardagi miqdori; hujayra ichidagi suyuqlik miqdori; TMI (tana massasi indeksi); asosiy moddalar almashinuvi; organizmda kaliy va natriy nisbati (Na, K); o'lchangan miqdorlarning me'yordan farqi; o'zgarishlar dinamikasi. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir sport turida muvaffaqiyatli tayyorgarlik uchun asosiy afzallik bo'lgan o'ziga xos morfologik model shakllanadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda yashovchi futbol bilan shug'ullanuvchi o'g'il bolalarda bioimpedans tahlilini qo'llagan holda tadqiqotlar o'tkazilmagan. Ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan bo'lib, unda Xiaomi Composition Seale 2 aqlli tarozilaridan foydalanilgan. Tekshiruv 2020-yil 7-oktyabr kuni o'tkazildi. 13-14 yoshli futbolchilarni (o'quv-mashg'ulot guruhleri - 11-15 yosh)**

o'rganish ko'rsatkichlari asosida quyidagilar aniqlandi. O'rtacha tana vazni  $x=47,4\pm 9,6$  kg ni tashkil etdi. O'rtacha qiymatdan yuqori ko'rsatkich 5 nafar (2,94) sportchida, 12 nafar sportchida esa o'rtacha qiymatdan past ko'rsatkichlar aniqlandi. Tana uzunligi  $x=169\pm 9,5$ sm ni tashkil etdi, faqat to'rtta sportchida o'rtacha qiymatdan yuqori bo'ldi. Yog' massasi  $x=7,2\pm 3,7\%$  ga to'g'ri keldi, besh nafar o'g'il bolada o'rtacha qiymatdan yuqori natijalar qayd etildi. Tana mushak massasi  $x=405\pm 6,1$  kg ni tashkil etdi, eng katta qiymat umumiy suv %da aniqlandi -  $x=60.4\pm 4.6$ . Asosiy almashinuv  $x=1341,3\pm 130,7$  kkal. ni tashkil etdi Bioimpedans metodi natijalariga ko'ra, tananing tarkibiy qismi olingan, bu esa axborotliliigi, tezkorligini oshiradi va fundamental tayyorgarlik samaradorligini oshirish, individual tayyorgarlikni boshqarish uchun yosh futbolchilarning jismoniy holatiga maqsadli tuzatishlar kiritish imkonini beradi (3-jadvalga qarang).

O'quv-mashg'ulot guruhlarida bosqichdagi asosiy vazifa individual imkoniyatlarni amalga oshirish maqsadida shiddatli tayyorgarlik uchun shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, buning uchun maxsus tayyorgarlikning mustahkam poydevorini va yuqori natijalarga erishish uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlardan foydalanish zarur. Bosqichning boshida asosan kompleks va tanlab yo'naltirilgan umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari - 40 - 60%, katta yuklamali mashg'ulotlar (30 - 40%) qo'llaniladi.

Ushbu bosqichda TTHni qayd etish ma'lumotlariga ko'ra, to'p uzatish soni ko'payadi, samaradorlik esa pasayadi, bu holat shundan kelib chiqadiki, jamoalarning qarshiligi kuchayadi va o'quv-mashg'ulot jarayonida individual harakatlarga e'tibor qaratiladi va guruhli hamda jamoaviy taktik harakatlarga kam ahamiyat beriladi, buning uchun o'quv-mashg'ulot jarayoni vositalari mazmuniga tuzatish kiritish zarur bo'ladi.

## Sport maktabi jamoasi 13 yoshli futbolchilarning tana tarkibi tahlili parametrlari (n=15) 7.10.2020

Familiyasi, ismi	Tana massasi (kg)	Bo'yi (sm)	Tana yog' massasi (%)	Mushaklar %	Suv (%)	Oq-sil (%)	Asosiy almashinuv (kkal)	Visseral yog'	Suyak massasi (kg)	Ideal vazn (kg)
1.T-v O.	45,95	157	5,2	41,4	65	25,2	1332	1	2	53,9
2.B-v A.	36,15	150	5	32,6	65,1	25	1192	1	1,7	47,6
3.M-v A.	47	158	7,5	43,8	63,4	24,2	1390	1	2,3	56,7
4.Sh-v R.	42	158	5	37,7	65,1	25,2	1274	1	1,9	49,7
5.O-v S.	73	179	19	55,6	55,5	21,2	1715	7	2,9	66,5
6. P-v M.	44,7	158	6	40	64,4	25	1316	1	1,9	51,1
7.T-v A.	49,7	161	8,3	43,2	62,8	24	1376	1	2,3	56,7
8.T-v D.	65	178	11,3	50,6	60,7	23,2	1532	2	2,7	66,5
9.S-v A.	45	167	5	39,9	65,1	24,5	1314	1	2,3	59,5
10.Z-v A.	46,4	161	5	41,7	65,1	24,8	1337	1	2,3	56
11.R-v M.	39,1	157	5	35,1	65,1	24,7	1226	1	1,9	57,4
12.Ya-v A.	49	158		38,5	60,7	23,6	1374	1	2	48,5
13.N-v A.	40	150	5	36,2	75	15,4	1251	1	1,8	
14.N-v Z.	44,5	155	8,9	38,6	62,4	24,3	1325	1	1,9	48,3
15.T-v X.	52,85	167	8,4	45,9	62,8	24	1429	1	2,5	59,5
16.S-v A.	38,5	150	5	33,7	65,1	25	1210	1	1,7	48,3
17.Sh-v A.	38	160	5	34	75	14,9	1209	1	1,9	56
$\bar{X}$ o'rtacha arifm. qiymat	<b>47,4</b>	<b>160,2</b>	<b>7,2</b>	<b>40,5</b>	<b>64,6</b>	<b>23,2</b>	<b>1341,3</b>	<b>1,4</b>	<b>2,1</b>	<b>55,1</b>
$\sigma$ o'rtacha kvadrat	<b>9,6</b>	<b>8,5</b>	<b>3,7</b>	<b>6,1</b>	<b>4,6</b>	<b>3,2</b>	<b>130,7</b>	<b>1,5</b>	<b>0,3</b>	<b>6,1</b>
V% variatsiya. koeff.	<b>20</b>	<b>5</b>	<b>51,72</b>	<b>15</b>	<b>7,2</b>	<b>13,7</b>	<b>9,74</b>	<b>103,4</b>	<b>16</b>	<b>11</b>
t Styudent taqsimoti	<b>0,7</b>	<b>0,2</b>	<b>4,4</b>	<b>0,8</b>	<b>0,5</b>	<b>1,4</b>	<b>0,0</b>	<b>19,6</b>	<b>14,0</b>	<b>0,6</b>
P ta'sir darajasi	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	<b>15</b>	<b>7</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>10</b>

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan A,B,S maxsus (koordinatsion murakkabligi va puls qiymati bilan ajralib turadigan) mashqlar 8-9 oy davomidagi musobaqa davrida haftasiga 2-3 marta qo'llanilganda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda o'yin faoliyatini oshirishga yordam berishi haqidagi faraz tasdiqlandi. Buning uchun tajriba tarzida A,B,S maxsus mashqlari ishlab chiqildi (4-jadvalga qarang).

#### 4-jadval

#### A,B,S modellari maxsus mashqlarining tasniflanishi

A modeli	B modeli	S modeli
Umumiy chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan (YUQS 140-160 zarba/min: o'rtacha 3x2, 2x2, 2x3 zonalar bilan ikkita darvozaga o'ynash. Ikkita darvozaga hujum harakatlari va to'pni markaz orqali uzatish bilan "devordan" keyin qfnotlarda davom ettirish va "ilgarilab" harakat qilish bilan o'ynash; b) ikkita+bitta kichik darvozga 1*1(12 min) dam olish tanaffusi-1.5-2-min.	Tezlik, tezlik chidamliligi, sakrovchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, texnik-taktik harakatlarni aerob-anaerob sharoitlarda (160-170 zarba/min) yuqori tezlikda bajarish, muvozanat saqlash qobiliyati. Pressingni va koordinatsion qobiliyatkarni takomillashtirish.	Anaerob sharoitlarda TTH larni takomillashtirishga yo'naltirilgan (YUQS 171-200zarba/min). Bo'sh va kuchli raqib bilan bir kunda 2 ta o'yin o'tkazish, gandikapli o'yin. Koordinatsion murakkab mashqlarda improvizatsiya qilish va kombinatsiyalar yaratish qobiliyati.

Qo'yilgan vazifalarga erishish uchun shakllantiruvchi tajriba o'tkazildi, unda nazorat va tajriba guruhlarining 13-14 yoshli (n=24) yosh futbolchilari ishtirok etdi. Shuningdek, nazorat guruhi futbolchilari O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlangan an'anaviy dastur asosida, tajriba guruhi esa ishlab chiqilgan maxsus mashqlar asosida shug'ullandi. Shakllantiruvchi tajribani o'tkazishdan oldin guruhlar ko'rsatkichlar bo'yicha bir xil ekanligi aniqlandi.

#### 5-jadval

#### Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhleri (n=24) natijalarning statistik ko'rsatkichlarini taqqoslash

UJT va MJT bo'yicha me'yorlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			Mutlaq ko'rsatkich	t	P
	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %			
To'p o'ynatish, marta	62,96	9,18	14,58	68,58	9,69	14,13	5,62	2,06	<0,05
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	191,42	31,76	16,59	207,63	33,51	16,14	16,21	1,72	>0,05
30 m ga yugurish (s)	5,12	0,69	13,48	4,73	0,62	13,11	0,39	2,06	>0,05
Ustunlarni aylanib o'tish (4 ta ustun, 20m),sek	10,65	1,77	16,62	9,83	1,58	16,07	0,82	1,69	>0,05
10m ga yugurish vaqti, sek	2,07	0,32	15,46	1,92	0,29	15,1	0,15	1,7	>0,05
Futbol, ball	30,08	4,38	14,56	32,75	4,62	14,11	2,67	2,05	>0,05

(Toshkent futbol akademiyasi (TFA) U-13 jamoasi)

Pedagogik tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarining jismoniy va maxsus-jismoniy tayyorgarlik darajasi o‘zaro ishonchli farqlarga ega bo‘lmadi ( $P>0,5$ ) (5-jadvalga qarang). Natijalar dinamikasi shuni korsatadiki, to‘p bilan 30 m ga yugurish vaqti pedagogik tajribadan keyin nazorat va tajriba guruhlarida  $P<0.05$  ( $t=3.46$ ) ishonchli farqlarga ega bo‘ldi, ustunlarni aylanib o‘tishga esa  $P<0.05$  ( $t=2.11$ ) darajasida, 10 m ga yugurishda  $P<0.05$  ( $t=2.97$ ) va turgan joydan uzunlikka sakrashda  $P<0.05$  ( $t=2.41$ ) darajada ishonchli farqlar aniqlandi. E’tirof etish muhimki, jismoniy rivojlanish, harakat tayyorgarligi yaxshilanmadi (6-jadvalga qarang).

Tajriba oxirida											
UJT va MJT bo‘yicha me‘yorlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi				Mutlaq ko‘rsatkich	O‘rta, %	t	P
	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	O‘rta, %				
To‘p o‘ynatish, marta	68,58	9,69	14,13	74,71	10,54	14,11	6,13	8,94	2,10	<0,05	
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	207,63	33,51	16,14	232,08	36,64	15,79	24,45	11,78	2,41	<0,05	
30 m ga yugurish (s)	4,73	0,62	13,11	4,13	0,58	14,04	0,6	12,68	3,46	<0,05	
Ustunlarni aylanib o‘tish (4 ta ustun, 20m)	9,83	1,58	16,07	9,01	1,06	11,76	0,82	8,34	2,11	<0,05	
10m ga yugurish vaqti, sek	1,92	0,29	15,10	1,68	0,27	16,07	0,24	12,5	2,97	<0,05	
Futbol, ball	32,75	4,62	14,11	35,17	4,96	14,10	2,42	7,39	1,75	>0,05	

6-jadval

### Tajriba oxirida nazorat va tajriba guruhleri (n=24) natijalarning statistik ko‘rsatkichlari dinamikasi


(Toshkent futbol akademiyasi (TFA) U-13 jamoasi)

Bobda futbolchilar harakatlanishlarini nazorat qilishda zamonaviy metodlar sifatida “Polar Team 2” yurak ritmi monitoridan foydalanilganlik ko‘rsatilgan. Bu sportchilarni monitoring qilishning mobil tizimi bo‘lib, harakat to‘g‘risidagi yuqori aniqlikdagi GPS-ma’lumotlarni, inersial datchik ko‘rsatkichi va joylashtirilgan modul yordamida yurak ritmini kuzatishni o‘z ichiga oladi. Yurak ritmi monitori real vaqt rejimida quyidagi parametrlarni kuzatishga imkon beradi: mashg‘ulot yoki o‘yin vaqtida futbolchining 15 ta tezlik zonalaridagi harakatlanishlari hajmi; 5 ta tomir urish zonalarida yuklama faolligi; sprintlar soni ( $V=7:5$  m/c); kaloriya sarfi; turgan joyi; YUQSning tiklanish tezligi; aerob shiddat zonalarini aniqlanadi; futbolchi tomonidan mashq bajarilayotgan maksimal tomir urishi aniqlanadi (YUQS minimal, o‘rta va maksimal qiymatlar).

1-rasmda Toshkent tumani BO‘SM jamoasining o‘quv-mashq mashg‘uloti pulsogrammasi (25.08.2021y), ya’ni texnik-taktik harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar pulsogrammasi berilgan. Ko‘rsatkichlar shuni aniqlab berdiki, 5 tadan 4 o‘yinchi aerob zonada 90% dan ko‘proq vaqt o‘tkazgan, yana 2 nafar o‘smir aerob-anaerob zonada mashg‘ulot olib borgan. Deyarli beshta

o'yinchi mashqni yuqori tezlikda o'tkazmagan va shu sababli energiya sarfi faqat 189-233 kkal ni tashkil etgan. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha Davron To'laganov yuqori parametрни ko'satdi - minutiga 197 zarba.

		🕒	HR			Time in sport zones					Above threshold	Training load	Kcal
			Minimum	Average	Maximum	50-59	60-69	70-79	80-89	90-100			
2	Xusan Turgunov	00:30:13	131	175	197	00:01:53	00:01:09	00:03:25	00:17:09	00:06:37	00:08:57	91	333
	Max HR: 206		48,0%	78,0%	93,0%	6,2%	3,8%	11,3%	56,8%	21,9%	29,6%	100,0%	100,0%
3	Ziyavuddinov Abdulaziz	00:33:05	110	150	199	00:06:13	00:07:34	00:11:10	00:07:12	00:00:56	00:01:29	61	237
	Max HR: 206		34,0%	61,0%	95,0%	18,7%	22,9%	33,7%	21,8%	2,9%	4,5%	100,0%	100,0%
4	Akrom Nabijonov	00:32:14	111	141	171	00:03:49	00:16:06	00:10:44	00:01:35	00:00:00	00:00:00	48	189
	Max HR: 206		34,0%	55,0%	76,0%	11,9%	49,9%	33,3%	4,9%	0,0%	0,0%	100,0%	100,0%
5	Abu-Bakr Sobirjonov	00:29:56	110	145	177	00:03:06	00:11:17	00:12:01	00:03:32	00:00:00	00:00:00	50	220
	Max HR: 206		34,0%	58,0%	80,0%	10,3%	37,7%	40,2%	11,8%	0,0%	0,0%	100,0%	100,0%
2 2	Davron Tulyaganov	00:33:04	102	145	195	00:06:25	00:11:45	00:06:54	00:06:27	00:01:33	00:02:12	58	307
	Max HR: 206		28,0%	58,0%	92,0%	19,3%	35,6%	20,9%	19,5%	4,7%	6,7%	100,0%	100,0%



1-rasm. O'quv-mashg'ulotining pulsogrammasi ma'lumotlari

Sportchi amaliy mashg‘ulotlarni yuqori samaradorlikda o‘tkazdi, faqat shunday yondashuv obyektiv-ilmiy tarzda yuklamalarni rejalashtirishga imkon beradi.

7-jadval

**O‘quv-mashg‘ulot guruhi bosqichida futbolchilarning model tavsiflari**


T/r	Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ma'lumotlari	
1.	10 m ga yugurish (s)	1,78
2.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	227,08
3.	Ustunlarni aylanib o‘tish (s)	9,08
4.	30 m ga to‘p bilan yugurish (s)	7,3
5.	To‘p o‘ynatish (marta)	74,71
<b>Musobaqa faoliyati</b>		
1.	Jamoaviy harakatlarning umumiy soni	483
2.	Harakatlar samaradorligi (%)	89,02 %
<b>Tana tarkibi ma'lumotlari</b>		
1.	Faol tana massasi (kg)	46,6
2.	Tana yog‘ massasi (%)	10,2
3.	Suv (%)	70,2
4.	Oqsil (%)	23,2
5.	Asosiy almashinuv (kkal)	1472
6.	Suyak massasi (kg)	2,4
7.	Ideal vazn (kg)	60,2

O‘tkazilgan tasdiqlovchi va shakllantiruvchi pedagogik tajriba o‘quv-mashg‘ulot guruhi bosqichida futbolchilarning model tavsiflarini ishlab chiqishga imkon berdi (7-jadvalga qarang).

Dissertatsiyaning «**Sport takomillashuvi bosqichida yuksak texnologiyalardan foydalanish**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida shu yoritiladiki, sport takomillashuvi bosqichida sport mahoratini takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi, chunki futbolchilarning o‘yin faoliyati mazmuni faqat jismoniy sifatlar bilan cheklanmasdan, texnik usullar va taktik harakatlarni ham o‘z ichiga oladi, shuning uchun futbolchilarning texnik-taktik harakatlari o‘rtasidagi xususiyatlar aynan shu asnoda ko‘rib chiqilishi kerak.

Faqat shundagina samarali vositalarni izlab topish yo‘nalishi aniqlanadi, ular asab-mushak kuchlanishlari xususiyati va TTH lar tuzilmasiga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot jarayoning ilmiy asoslangan vositalari aniqlangan, futbolchilarning sport mahoratini aniqlash bo‘yicha maqsadli vositalar belgilab olingan. Sport takomillashuvchi bosqichida sportchilar tayyorgarligi vositalari va metodlarini tanlashga maqsadli yondashish zarur. Sport takomillashuvi bosqichida “Lokomotiv” U-19 jamoasi futbolchilarining individual texnik-taktik harakatlari ma'lumotlari statistik ishlab chiqildi. Qarab chiqilayotgan to‘p uzatishlar ma'lumotlari o‘zaro harakatlar va muvofiqlik vositasi sifatida qaraladi ( jami to‘p uzatishlar soni 8956, samaradorlik koeffitsiyenti 83.6% samaradorlik koeffitsiyenti 16.5%) (8-jadvalga qarang).

## Sport takomillashuvi bosqichida U-19 futbolchilarining TTH lari soni va samaradorligi ko'rsatkichlari

		Pozisiya	O'yinlar	Maydon dagi vaqti (min)	To'p uzatishlar												Sama rador lik koef./ (%)	Xatolik koef. (%)	
					Oldiga		Orqaga		Ko'ndalan giga		Uzoqqa		Qanotlarga		Jami				
					+	-	+	-	+	-	+	-	+	-	+	-			Σ
30	Baklanov Daniil	Dar-n	11	990	248	6			31	1	66	37			345	44	389	88,7	11,3
40	Kurbonov Farrux	Dar-n	2	180	36	2			6		6	4			48	6	54	88,9	11,1
50	Maxmudov Xusan	Dar-n	7	630	118	9			35	1	63	44			216	54	270	80,0	20,0
37	Mamajonov Xamidullox	Mhim.	13	1059	293	36	114		133		31	46	1		572	82	654	87,5	12,5
56	Usmonxujayev Ismoilbek	Mhim.	12	852	279	34	88		125	3	25	25			517	62	579	89,3	10,7
34	Erkinov Doniyor	Mhim.	12	855	200	25	64	1	82	3	35	35			381	64	445	85,6	14,4
81	Inomov Diyorbek	Mhim.	4	252	63	18	50	1	53	4	2				168	23	191	88,0	12,0
53	Ergashev Kamronbek	Mhim.	2	66	14	5	11		3		3	1			31	6	37	83,8	16,2
27	Aloxudjayev Maksudxudja	Chqhm	16	1303	379	48	155	2	135	3	48	73	11	16	728	142	870	83,7	16,3
58	Abdumajitov Azizbek	Chqhm	11	689	115	34	68	2	38	3	8	13	6	8	235	60	295	79,7	20,3
41	Seytjanov Chingiz	Chqhm	3	100	18	4	13		7		1	2			39	6	45	86,7	13,3
48	Yigitaliyev Kamronbek	O'qhm	19	1538	359	80	265	8	141	3	26	24	10	16	801	131	932	85,9	14,1
42	Sharipov Saidakbar	O'qhm	12	542	76	27	83		19		2	2	1	1	181	30	211	85,8	14,2
46	Xoshimboyev Jaxongir	Tyahm	18	1038	212	64	153	8	114	10	10	16	3		492	98	590	83,4	16,6
47	Xusanov Muxammad-Yusuf	Tyahm	16	727	117	36	121	4	77	4	3	5	1	1	319	50	369	86,4	13,6
38	Kurbonov Ibroximjon	Myahm	19	1452	189	56	211	10	86	6	19	7	2	8	507	87	594	85,4	14,6
35	Jumaxanov Pulatjon	Myahm	16	955	126	43	144	2	59	5	8	8	8	7	345	65	410	84,1	15,9
54	Kuchkorov Ismoil	Myahm	12	420	92	26	53	2	18	3	2	4	1	4	166	39	205	81,0	19,0
57	Xabibullayev Muxammad	Myahm	7	168	39	15	26	1	10	1	1			1	76	18	94	80,9	19,1
77	Mirzayev Lazizbek	Myahm	3	198	37	17	38	1	12	1	1	2	3	2	91	23	114	79,8	20,2
36	Komilov Azamat	Chqhj	16	1246	112	50	139	13	54	7	7	4	14	15	326	89	415	78,6	21,4
43	Tursunaliyev Ibroximjon	Chqhj	10	256	24	9	31	1	13		1		3	2	72	12	84	85,7	14,3
52	Mamataliyev Diyorbek	O'qhj	17	1266	144	59	89	10	45	8	6	5	18	20	302	102	404	74,8	25,2
31	Abrayev Kuvonchbek	O'qhj	7	436	24	16	31	2	16	8		1	5	15	76	42	118	64,4	35,6
59	Almeyev Amir	O'qhj	10	246	15	4	27	4	11			1	2	5	55	14	69	79,7	20,3
49	Yokubov Aminbek	O'qhj	6	232	20	10	36	3	25		1		3	2	85	15	100	85,0	15,0
45	Mubarakov Javoxir	Mhj	17	1472	87	57	110	6	35	12	1	2	7	11	240	88	328	73,2	26,8
32	Akopov Nikolaos	Mhj	11	297	12	12	17	2	6	2		2			35	18	53	66,0	34,0
<b>Jami:</b>					<b>3463</b>	<b>803</b>	<b>2148</b>	<b>83</b>	<b>1394</b>	<b>88</b>	<b>376</b>	<b>364</b>	<b>101</b>	<b>136</b>	<b>7482</b>	<b>1474</b>	<b>8956</b>	<b>83,5</b>	<b>16,5</b>

Shuni ta'kidlash kerakki, individual taktik harakatlar parametrlari juda zaif, guruhli harakatlar ma'lumotlari esa yetarlicha ijobiy. Shuning uchun individual taktik harakatlar samaradorligini oshirish bo'yicha ishlarni kuchaytirish, individual va mustaqil mashg'ulotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, koordinatsion qobiliyatlar ko'rsatkichlaridan biri samaradorlik (harakatlarning aniqligi) bo'lib, uni oshirish uchun maxsus mashqlar ishlab chiqildi (9-jadvalga qarang).

**9-jadval**

**Futbolchilarning taktik harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan maxsus mashqlar**

A modeli	B modeli	S modeli
A) 11×11 bo'lib butun maydonda 2 marta to'pga tegish bilan o'ynaladi B) darvozabonsiz 11×11 gandbol o'yini	A) 9×9 darvozabonsiz B) 9×9 darvozabonlar bilan B) 9×9 to'pga ega bo'lgan jamoa uchun ikkita erkin o'yinchi bilan, yugurish yo'lkasida 3000 m yugurish (Kuper testi) 1 ta golgacha chiqib ketish bilan 2×2, 3×3 qo'l to'pi o'yini	Darvozabonsiz ikki taym 10' A) 6×5 (darvozabon bilan) B) 6×6 darvozabon bilan, 7×7 kuchsiz raqib bilan o'yin (pressing) B) bir kunda ikki o'yin: - kuchsiz raqib bilan - kuchli raqib bilan

Belgilangan maqsadga erishish, ya'ni sport mahoratini takomillashtirish uchun shakllantiruvchi pedagogik tajriba o'tkazildi, unda ROZSK (Respublika olimpiya zaxiralari sport kolleji) jamoasining 17 yoshli nazorat va tajriba guruhleri futbolchilari (n=22) ishtirok etdi. Tajriba boshlanishidan oldin me'yorlar bo'yicha birinchi test o'tkazildi: to'p o'ynatish, turgan joydan uzunlikka sakrash, to'p bilan 30 m ga yugurish, 4 ta ustunni aylanib o'tish, 10 m ga yugurish, o'yin uchun baho. Dastlabki ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili tajriba ishtirokchilarining deyarli barcha parametrlar bo'yicha bir xilligini ko'rsatdi (P>0,05).

**10-jadval**

**Tajriba boshida sport takomillashuvi bosqichi nazorat va tajriba guruhleri (n=22) natijalarning statistik ko'rsatkichlari dinamikasi (ROZSK U-17 jamoasi)**

Jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			Mutlaq ko'rsatkich	t	P
	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %			
To'p o'ynatish, marta	69,27	9,41	13,58	68,36	9,56	13,98	0,91	0,32	>0,05
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	198,82	30,96	15,57	202,77	32,41	15,98	3,95	0,41	>0,05
30 m ga yugurish (s)	5,04	0,73	14,58	4,89	0,73	14,93	0,15	0,68	>0,05
Ustunlarni aylanib o'tish (4 ta ustun, 20m)	10,61	1,44	13,57	10,65	1,49	13,99	0,04	0,09	>0,05
10m ga yugurish vaqti, sek	2,01	0,31	15,42	2,03	0,33	16,26	0,02	0,21	>0,05
Futbol, ball	33,18	4,84	14,59	32,55	4,88	14,99	0,63	0,43	>0,05


Tajribaning boshida va oxirida olingan empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, futbolchilarda (TG) tadqiqot davrining oxiriga kelib oltita me'yorning to'rttasida: to'p o'ynatish  $P < 0,05$  ( $t=2,05$ ), to'p bilan 30 m.ga yugurish tezligi  $P < 0,05$  ( $t=2,44$ ), 10 m.ga yugurish vaqti  $P < 0,05$  ( $t=2,25$ ), ustunlarni aylanib o'tish  $P < 0,05$  ( $t=2,14$ ) ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi (10,11-jadvallarga qarang).

11-jadval

**Tajriba boshida sport takomillashuvi bosqichi narorat va tajriba guruhleri (n=22) natijalarning statistik ko'rsatkichlari dinamikasi (ROZSK U-17 jamoasi)**

Tajriba oxirida											
Jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi				Mutlaq ko'rsatkich	O'sish, %	t	P
	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %					
To'p o'ynatish, marta	75,23	9,89	13,15	81,59	10,71	13,13	6,36	8,45	2,05	>0,05	
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	215,36	32,61	15,14	239,50	35,48	14,81	24,14	11,21	2,35	<0,05	
30 m ga yugurish (s)	4,67	0,66	14,13	4,21	0,59	14,01	0,46	9,85	2,44	<0,05	
Ustunlarni aylanib o'tish (4 ta ustun, 20m)	9,89	1,30	13,14	9,14	1,01	11,05	0,75	7,58	2,14	<0,05	
10m ga yugurish vaqti, sek	1,83	0,28	15,3	1,65	0,25	15,15	0,18	9,48	2,25	<0,05	
Futbol, ball	36,23	5,12	14,13	39,50	5,57	14,10	3,27	9,03	2,03	>0,05	

Dissertatsiyaning “**Oliy sport mahorati bosqichida ilmiy asoslangan texnologiyalarning qo'llanilishini asoslash**” deb nomlangan beshinchi bobida quyidagilar bayon qilingan. Zamonaviy futbol yuqori shiddat va jadallik, texnik-taktik harakatlarning yuqori tezlikda yuksak samaradorlik bilan bajarilishining kuchayishi bilan ajralib turadi. Shiddat kuchlarni jamlash, o'tkir diqqat-e'tibor, ayni paytda texnik-taktik harakatlarning (TTH) universal tarzda ijro qilinishni taqozo etadi. Universallik - bu texnik usullar va taktik harakatlarni qo'llash xilma-xilligi, sheriklar bilan o'zaro harakat qilish ko'nikmasi, texnik usullarni himoya harakatlarida, hujum harakatlarini davom ettirish va yakunlashda qo'llay olishdir. Tabiiyki, oliy sport mahorati bosqichida yuqoridagi individual tayyorgarlikka ega bo'lgan futbolchiga kompetentli sportchi sifatida qaraladi (1-sxemaga qarang).



1-sxema. Kompetentli futbolchining ishlab chiqilgan modeli

Kompetentli futbolchini tarbiyalash uchun yuksak texnologiyalardan foydalanish taqozo etiladi. Yuksak texnologiyalar deganda zamonaviy metodlar asosida katta hajmdagi tadqiqotlar va ularning natijalari tushuniladi. Zamonaviy tadqiqot metodlaridan tashkil topgan yuksak ilmiy texnologiyalar, jumladan zamonaviy „Instat” tahliliy tizimi o‘yinchilar va, umuman, butun jamoaning texnik-taktik harakatlarini qayd etish va tahlil qilishga imkon beradi. U jamoalarning ma’lumotlar bazasi bo‘yicha eng katta materialni taqdim etadi. Bioimpedans metodi, “Omega-S” telemetrik tizimi shiddat zonalarini (aerob, anaerob, aerob-anaerob) inobatga olgan holda YUQS ni qayd etuvchi yurak ritmi monitori, temperament, psixik holatni aniqlash va tuzatish vositalari.

Ushbu taqdim etilgan va ishda qollanilgan yuksak texnologiyalar ham fundamental tayyorgarlik asosi, ham ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichida, ayniqsa oliy sport mahorati bosqichida futbolchilarni takomillashtirish vositasi hamda metodi hisoblanadi, chunki bu yerda asosiy vazifa moslashish jarayonlarining jadal kechishi va individual imkoniyatlarni amalga oshirishni ta’minlaydigan mashg‘ulot vositalaridan maksimal foydalanishdan iborat.

Maxsus adabiyotlarda maxsus mashqlardan foydalanish bo‘yicha ishlanmalar va takliflar deyarli uchramaydi, chunki ular asoslab berilmagan. Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlashning dolzarb muammolardan biri musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishga yordam berishi muhim bo‘lgan maxsus mashqlarni bajarish metodlarini izlab topish hamda asoslash hisoblanadi. Bu metodlar yakunda o‘yin faoliyati natijadorligini oshirishga, umuman esa o‘yinda g‘alaba qozonishga yordam beradi.

Har tomonlama tayyorgarlikning maqsadi - sport mahoratini tashkil etuvchi texnik, jismoniy, taktik va psixologik tayyorgarlikning kompleks namoyon bo‘lish samaradorligi va individual imkoniyatlarni amalga oshirishni ta’minlashdir. Ular, “Omega-S” telemetrik tizimidan foydalanish orqali aniqlanadi.

“Dinamika-S”, hozirda “Omega-S” telemetrik tizimi yurak ritmi monitori (YURM)-interfeys-kompyuterdan tashkil topgan. Tizim asosida sportchi organizimining biologik ritmlarini tahlil qilishining yangi axborot texnologiyasi yotadi. Tizimni yaratishda fiziologiya, sport tibbiyoti sohasidagi eng yangi yutuqlardan foydalanilgan va futbolchilarning jismoniy yuklamalarga moslashish darajasi, mashqlanganlik darajasi, organizm zaxirasi, sport formasi korsatkichlari, psixoemotsional holatini aniqlab beruvchi jismoniy holatni baholash uchun yangi yuqori me’yoriy ko‘rsatkichlar taklif qilingan.

A-v X. da jismoniy yuklamalarga moslashish darajasi past (60%), boshqa sportchilarda u maksimal darajada. Mashqlanganlik darajasi 4 nafar sportchida yetarli emas (48%, 58%, 53% past-40%, yetarli emas-52%). jismoniy holat ko‘rsatkichlari yaxshi va a‘lo, X.A-v bundan mustasno (unda qoniqarli va moslashish darajasi past). Organizm zaxirasi asosan barcha futbolchilarda yuqori (64-91%), tananing yog‘ massasi Yu-v M.da (11%) va himoyachi T-v G. da biroz (13%) ko‘proq (12-jadvalga qarang).


Yuqori malakali futbolchilarning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda 15 ta ko‘rsatkich bo‘yicha kompleks baholashdan foydalanildi.

## 12-jadval

## O'zbekiston miliy terma jamoasi futbolchilarining jismoniy holati ko'rsatkichlari

T/r	O'yinchi-ning familiyasi	Jismoniy yuklamaga moslashish darajasi	Mashqlanganlik darajasi	Jismoniy holati	Sport formasi	Organizm zaxirasi	Psixoyemotsional holati, faollik	Tana yog' massasi
1.	Yu-v O'.	maks. – 91%	maks. – 90%	a'lo	maks. – 0,88	yuqori.– 76%	maks. – 91%	11
2.	A-v X.	past. – 60%	yetarli emast. – 49%	qon-li	o'rta – 0,55	yetarli emas . – 48%	me'yor - 60%	7
3.	A-v X.	maks. – 100%	maks. – 100%	a'lo	maks. – 0,96	maks. – 88%	maks. – 92%	3
4.	E-v G.	maks. – 100%	yetarli emas – 58%	yaxsh.	yuqori -0,73	yuqori.– 65%	yuqori . - 63%	13
5.	U-v O.	maks. – 88%	yuqori . – 72%	qon-li	o'rta – 0,80	yetarli emas – 31%	me'yor. - 46%	8
6.	S-v F.	yuqori. – 66%	yetarli emas – 53%	yaxshi	yuqori .-0,73	yuqori .– 76%	maks. – 90%	7
7.	Sh-v O.	yuqori – 73%	past– 40%	yaxsh.	yuqori.-0,63	yuqori .– 67%	yuqori – 68%	10
8.	A-v R.	maks. – 82%	maks. – 93%	yaxshi	yuqori.-0,76	yetarli emas – 43%	yuqori – 80%	9
9.	X-v U.	maks. – 87%	yuqori . – 62%	yaxshi	yuqori.-0,74	yuqori .– 66%	yuqori – 77%	8
10.	M-v J.	maks. – 92%	maks. – 99%	a'lo	maks. – 0,84	yuqori .– 66%	yuqori – 75%	4
11.	Sh-v E.	maks. – 93%	yetarli emas – 52%	yaxshi	yuqori.-0,79	yetarli emas – 43%	me'yor. - 50%	11
12.	F-v A.	maks. – 93%	yuqori . – 79%	yaxshi	yuqori.-0,94	yuqori .– 70%	yuqori – 64%	7
13.	S-v I.	maks. – 100%	maks. – 100%	a'lo	maks. – 0,94	yuqori .– 80%	maks. – 91%	6
14.	X-v A.	maks. – 94%	maks. – 81%	yaxshi	yuqori.-0,78	yuqori .– 64%	yuqori – 70%	7
15.	X-v D.	maks. – 100%	maks. – 98%	yaxshi.	yuqori.-0,78	yetarli emas– 56%	me'yor - 53%	8

Superliga (2019) o'yinlarida "Paxtakor" jamoasi o'yinchilarning texnik-taktik harakatlari va o'yin vaqtini hisobga olish ko'rsatkichlari

		TUR		1-davra	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	Jami	
		Jamoalari (Sana)			"Qo'qon-1912" (26.06.2019)	"Qizilqum" (30.07.2019)	"Buxoro" (10.08.2019)	"OKMK" (17.08.2019)	"Andijon" (27.08.2019)	"Navbahor" (15.09.2019)	"Metallurg" (21.09.2019)	Sog'diyona (01.10.2019)	"Dinamo" (19.10.2019)	"Surxon" (31.10.2019)	"Nasaf" (23.11.2019)	"Bunyodkor (27.11.2019)	"Lokomotiv" (30.11.2019)		
		O'yin natijasi			3:1	5:0	5:0	3:0	5:1	1:0	2:1	3:0	4:1	3:1	2:1	2:3	0:0		
1	Kuvvatov S.	TTH	+	327							25		31	27	33	26		469	
			-	55							3		4	2	5	8		77	
		Jami TTH		382								28		35	29	38	34		546
		Sam-k koef. (%)		85,6								89,3		88,6	93,1	86,8	76,5		85,9
		Xatolar koef. (%)		14,4								10,7		11,4	6,9	13,2	23,5		14,1
Maydondagi vaqt (min.)		900								90		90	90	90	90		1350		
2	Krimes Ye.	TTH	+	779		92	73	103		60	71	74	74	73	82	70	57	1608	
			-	152		10	18	12		16	12	20	16	11	23	24	19	333	
		Jami TTH		931		102	91	115		76	83	94	90	84	105	94	76	1941	
		Sam-k koef. (%)		83,7		90,2	80,2	89,6		78,9	85,5	78,7	82,2	86,9	78,1	74,5	75,0	82,8	
		Xatolar koef. (%)		16,3		9,8	19,8	10,4		21,1	14,5	21,3	17,8	13,1	21,9	25,5	25,0	17,2	
Maydondagi vaqt (min.)		900		90	90	90		90	90	90	90	90	90	90	90		1890		
3	Azamov Sh.	TTH	+	714	64		86		79	54			96		53	12	66	1224	
			-	117	15		11		12	19			13		8	2	10	207	
		Jami TTH		831	79		97		91	73			109		61	14	76	1431	
		Sam-k koef. (%)		85,9	81,0		88,7		86,8	74,0			88,1		86,9	85,7	86,8	85,5	
		Xatolar koef. (%)		14,1	19,0		11,3		13,2	26,0			11,9		13,1	14,3	13,2	14,5	
Maydondagi vaqt (min.)		784	90		90		90	90			90		45	15	90	1384			
4	Sayfiyev F.	TTH	+	593	45	59	59	93	93	64	47	64	16	76	67	53	65	1394	
			-	182	12	13	8	15	15	18	14	21	1	15	22	17	17	370	
		Jami TTH		775	57	72	67	108	108	82	61	85	17	91	89	70	82	1764	
		Sam-k koef. (%)		76,5	78,9	81,9	88,1	86,1	86,1	78,0	77,0	75,3	94,1	83,5	75,3	75,7	79,3	79,0	
		Xatolar koef. (%)		23,5	21,1	18,1	11,9	13,9	13,9	22,0	23,0	24,7	5,9	16,5	24,7	24,3	20,7	21,0	
Maydondagi vaqt (min.)		858	90	90	90	90	90	90	90	90	11	90	90	90	90	1949			

Yuqori malakali futbolchilarning o‘yinini samarali tahlil etish, ulardagi kamchiliklarni aniqlash uchun quyidagilardan foydalanish lozim: jami TTH lar soni va ularning samaradorligi (%) va xatolar foizi, maydondagi vaqti, to‘p uzatishlar soni va samaradorligi, standart vaziyatlarda o‘ynash. 13-jadvalda “Paxtakor” jamoasining 2019-yil O‘zbekiston chempionati Superliga o‘yinlaridagi 8 nafar futbolchisining texnik-taktik harakatlari ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Birinchi davra musobaqalarida S.Sobirho‘jayev yetarlicha faol o‘yin ko‘rsatdi (TTH-1839, samaradorlik-77.8%). 12 ta o‘yin jarayonida (14-26) markaziy himoyachi E.Krimets o‘zini ijobiy namoyon etdi (jami TTH lardan ijobiysi 774 va salbiy harakatlar - 152) Samaradorlik 83.7%ni va xatolar 16.3%ni tashkil etdi. “Paxtakor” jamoasining eng faol o‘yinchisi F.Sayfiyev bo‘ldi (chap qanot himoyachisi)-ijobiy harakatlar-593, salbiy-182. Samaradorlik koeffitsiyenti 0.76% ni tashkil etdi. I.Xamrobekovda (1649-82.2%). J.Masharipov hammadan faolroq futbolchi sifatida o‘zini namoyon qildi (278), samaradorlik-71.7%. E’tirof etish muhimki, himoyachilar o‘zlarining asosiy vazifalaridan (himoyada o‘ynashdan) tashqari, ham o‘rta chiziqda ( hujumni davom ettirishi) tez-tez harakat qildilar (13-jadvalga qarang). Agar keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilib chiqsak, ko‘rinadiki, yarim himoya va hujum chizig‘i o‘yinchilari yetarlicha jismoniy ishchanlik qobiliyatiga ega emas. Shundan texnik-taktik harakatlarni bajarish soni juda kam. Bunday o‘yinchilar ko‘pchilik, yani beshtadan ko‘p - 50% atrofida.

#### 14-jadval

#### Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarini natijalarining statistik ko‘rsatkichlarini taqqoslash (oliy sport mahorati bosqichi)

Tajriba boshida									
Jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha me‘yorlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			Mutlaq ko‘rsatkich	t	P
	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %			
To‘p o‘ynatish, marta	74,18	8,58	11,57	72,64	8,71	11,99	1,54	0,59	>0,05
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	212,45	28,87	13,59	216,45	30,25	13,98	4,00	0,45	>0,05
30 m ga yugurish (s)	4,93	0,62	12,58	4,76	0,62	13,03	0,17	0,91	>0,05
Ustunlarni aylanib o‘tish (4 ta ustun, 20m)	10,48	1,42	13,55	10,54	1,47	13,95	0,06	0,14	>0,05
10m ga yugurish vaqti, sek	1,96	0,27	13,78	1,97	0,28	14,21	0,01	0,12	>0,05

Samarali vositalarni izlab topish maqsadida tasdiqlovchi pedagogik tajriba o‘tkazildi, unda har xil malakaga ega futbolchilar ishtirok etdi. Bunda jismoniy rivojlanish ma’lumotlari qiymatlari aniqlandi.

Tadqiqotlar jarayonida jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha natijalar statistik ishlab chiqildi: nazorat guruhida turgan joydan uzunlikka sakrash, 10-m ga yugurish vaqti (“Dinamo” Samarqand) va tajriba guruhida (“Nasaf” Qarshi) maxsus jismoniy tayyorgarlik (1min ichida to‘p o‘ynatish, 30m ga to‘p bilan

yugurish, ustunlarni aylanib o'tish). Dastlabki o'lchashlarda guruhlar orasida ishonchli farqlar aniqlanmadi ( $P>0,05$ ).

### 15-jadval

#### Tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarining statistik ko'rsatkichlarini taqqoslash (oliy sport mahorati bosqichi)

Tajriba oxirida											
Jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi				Mutlaq ko'rsatkich	O'sish, %	t	P
	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %	$\bar{X}$	$\sigma$	V, %					
To'p o'ynatish, marta	75,23	9,89	13,15	81,59	10,71	13,13	6,36	8,46	2,05	>0,05	
Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	215,36	32,61	15,14	234,50	25,48	10,87	19,14	8,89	2,17	<0,05	
30 m ga yugurish (s)	4,67	0,66	14,13	4,21	0,59	14,01	0,46	9,85	2,44	<0,05	
Ustunlarni aylanib o'tish (4 ta ustun, 20m)	9,89	1,30	13,14	9,14	1,01	11,05	0,75	7,58	2,14	<0,05	
10m ga yugurish vaqti, sek	1,83	0,28	15,3	1,65	0,25	15,15	0,18	9,84	2,25	<0,05	

Pedagogik tajriba oxirida quyidagi testlarda ishonchli farqlar aniqlandi: turgan joydan uzunlikka sakrash  $P<0,05$  ( $t=2.17$ ), 30m ga to'p bilan yugurish  $P<0,05$  ( $t= 2.44$ ), 10m ga yugurish vaqti  $P<0,05$  ( $t=2.25$ ). Tezlik qobiliyatlarini baholovchi eng muhim ko'rsatkichlarda ishonchli farqlar aniqlandi, koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirishga qaratilgan testlarda farqlar aniqlanmadi. Qo'llaniladigan mashqlar koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirishga yordam bermaydi (14-15-jadvallarga qarang).

### 16-jadval

#### Oliy sport mahorati bosqichi futbolchilarning model tavsiflari

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Baholar				
		5	4	3	2	1
1.	O'pkaning tiriklik sig'imi (sm)	4162	3963	3763	2563	3366
2.	Jismoniy ishchanlik qobiliyati PWC 170 umumiy (kgm/min) kg vazinga nisbatan (kgm/min.kg)	1606 25	1546 24	1486 23	1436 22	1380 21
3.	Kislorodni maksimal o'zlashtirish KMO' – umumiy. (l/min) kg vaznga nisbatan (ml/kg/min)	4,4 74	4,3 71	4,2 68	4,1 66	4 63
4.	30 m ga yugurish (sek)	4,1	4,15	4,2	4,25	4,3
5.	Yo-Yo testi	1640	1440	1280	1160	1120
6.	Kuper testi (m)	3078	3023	2973	2922	2872
7.	Besh karra sakrash (m,sm)	15	13,5	12	10,5	9
8.	5x30m yugurish (sek)	21,6	22,1	22,6	23,1	23,6
9.	30 m to'p bilan yugurish	4,3	4,35	4,4	4,49	4,54
10.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	245	241	237	233	229
11.	To'pni autdan o'yinga kiritish (m)	26	24	22	19	17
12.	Yotib tayanib, qo'llarni bukib-yozish (marta)	43	40	37	34	31
13.	Uzoqqa zarba berish (m)	89	85	81	77	73
14.	Ustunlarni aylanib o'tish (sek)	8	8,1	8,2	8,3	8,4
15.	Faol tana massasi (kg)	44,6	42,5	40,4	39,3	36,3
16.	Tana yog' massasi (%)	10,6	10,2	9,8	9,4	9
17.	Jami TTH lar soni	20000	19537	18000	17734	16789
18.	TTXH lar samaradorligi (%)	90	80	70	65	60

O'tkazilgan turli-tuman tadbirlar sport mahoratini takomillashtirish bosqichida futbolchilarning model tavsiflarini ishlab chiqishga imkon berdi (16-jadvalga qarang).

Dissertatsiyaning **“Temperament va fe'l-atvorni o'rganish futbolchilar ko'p yillik tayyorgarligini modellashtirish bosqichlarida shaxslashtirilgan yondashuv asosi sifatida”** deb nomlangan oltinchi bobida tadqiqotlar natijalari hamda o'quv-mashg'ulot guruhi futbolchilarining shaxsiy tavsiflari baholari yakunlari keltirilgan bo'lib, bu yerda aniqlanishicha, deyarli har bir sportchi shaxsiy ko'rsatkichlarga ega va shu sababli individual yondashuv hamda tuzatishlar kiritish vositalarini tadqiq qilish zarur. E'tirof etish muhimki, mazkur bobda angliyalik psixolog G.Ayzenk, polshalik Ya.Strelyau, fransuz psixologi M.Lyushyer so'rovnomalaridan foydalanish asosida psixologik holat, asab tizimi psixogeometriyasi, temperament kabi tasviflar keng yoritib berilgan.

Musobaqa faoliyatining hozirgi zamon sharoitlarida psixologik tayyorgarlikning ahamiyati ortib bormoqda, chunki harakat faolligining oshib borish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu futbolchi oldida turgan ekstremal vaziyatlarning ko'payishiga olib keldi, paydo bo'lgan katta qiyinchiliklar futbolchidan kuch va imkoniyatlarni oxirigacha safarbar etishni taqozo qiladi, zero u yuzaga keladigan o'yin vazifalarini bajara olishi va muammolarni hal eta olishi kerak.

Shu sababli futbolchilarning psixologik tayyorgarligi quyidagilarga barqarorlikni shakllantirishga qaratilishi kerak:

- psixikaga kuchli ta'sir etuvchi omillar: tan jarohatlari, jarohatlanishlar;
- raqib bilan to'p uchun kurashishda psixologik bosimga qarshi turish, provokatsiyaga berilmaslik;
- o'yin faoliyatida ziddiyatli vaziyatlar: raqibni haqorat qilish va zulm o'tkazish, jismoniy tajovuz, psixologik tarang vaziyatlarda provakatsiyaga chorlovchi holatlarda o'zini qo'lga ola bilish.

Futbolchining psixik holatni tartibga sola olmasligi salbiy va ko'p hollarda og'ir oqibatlariga olib keladi. O'z xulqini boshqara olmaslik futbolchining o'yin muhiti sharoitlariga psixologik moslashish qobiliyatini pasaytiradi va texnik-taktik harakatlarni amalga oshirishda jiddiy to'siq bo'ladi.

Futbolchilar shaxsi tipini o'rganish uchun katta testlar ensiklopediyasidan B.Ayzyenk va Ya.Strelyau testlari qo'llanildi. Savollarga berilgan javoblar temperament tipini (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik), xulq-atvor, individual barqarorlik sifatleri, futbolchining psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi.

O'ynichilarning katta guruhi vazifalar o'zgartirilganda texnik usullar va taktik harakatlarni takomillashtirishida tez qayta o'zgarish qobiliyatiga egalar. Qayd etish muhimki, ishda fe'l-atvorning ko'rinishlari keltiriladi: xotirjam, tinch, vazmin. Do'st bo'lishga majburlamaydi, agar taklif qilishsa, rad etmaydi.

## Tavsif va tuzatish vositalari

<i>To'laganov</i> 16.08.2021	<i>Davron</i>
<p style="text-align: center;"><b>Psixologik holat</b></p> <p>Muvaffaqiyatga umid va yorqin ifodalangan emotivlik batartiblik bilan uyg'unlashgan. Harakatga bo'lgan extiyoj, emotsional jalb qilinganlik, o'zgarishlar, muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj, optimizm, emotsional barqarorlik, turli xil ijtimoiy rollarga osongina kirishib ketish namoyishkorlik atrofda qilargalarga yoqishga bo'lgan ehtiyoj, muhit ta'siriga bo'g'liq bo'lish, shaxslararo o'zaro munosabatlarda tan olinishni va raqobatga intilishini izlash mas'uliyatdan qochish tendensiyasi, faoliyat turini tanlashda faoliyat jarayonini ozi qoniqish hosil qilishga yo'naltirilganlik. Har qanday rasmiyatchilik chegaralarni tor va yomon qabul qiliadi. Emotsional holatning yorqin o'zgarib turishi va nimagadir yoki kimgadir bog'lanib qolishda doimiylikning yo'qligi. His-tuyg'ularning bevositaligi, ko'pligidan o'yinlarga, faoliyatning tarkibiga ishtiyoq. Bu fe'l-atvor qirralari quyidagi tendensiyalar bilan kuchayadi: qaysarlik, omilkorlik, shaxsiy maqsadlarni himoya qilish ehtiyoji, matbuot, tajovuzkorlik (u himoyalani xususiyasiga ega ). Teran fikrlash, oqilonalik, muammolarni hal etishda tizimli yondashish tendensiyasi. To'plangan tajribaga tayanish. Shaxsiy fikriga tayanish, tashqi muhit ta'sirlariga qarshilik ko'rsatish. hayotning platformaring yotiqligi. Raqobatchilik hissi, shaxsiy ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyatligi. Muayyan faoliyat turlariga, aniq bilimlar sohasi va ijtimoiy muhitda yetakchning orniga nisbatan tropism nisbatan. Nobakorlik va nomoslashuvchanlik uyg'unlikda o'zaro bir-birini muvozanatda ushlab turish mumkin, yetarlicha yuqori intellekt bo'lsa. Qiziqishlari diapazoni keng, yuqori izlanuvchan faollik, qaror qabul qilishga rejali, samarali faoliyat yurutishga yordam beradi. Yetarli bo'lmagan shaxsiy integratsiya- yuqori darajadagi ziddiyatlar. „Tan olinishini izlayotgan shaxs” muammosi. Mustaqil pozitsiyaga intilish, original fikrlash, qiziqishlarning oziga xosligi, „ alohida” his-hayajonlarga ehtiyoj, real maqsadlar oldida ularga ustunlik beriladi. Emotsional jalb qilinganlikda ehtiyoj, u yuzaki xususiyatga ega bo'ladi.</p>	
<p style="text-align: center;"><b>Psixogeometriya</b></p> <p>Aralash fikrlash tipi (chap va o'ng yarim sharlar bilan). Ishonchli va ijrochi kommunikator. Talabchan. Barqarorlik. Umumiy xotirjamlik va insonlarga yordam berishga qiziqadi. Muloqotda tosiqlarga duch keladi. Imkoniyatlarni ochish tavsiya qilinadi</p> <p>“Kuchli” sifatleri: Uyushganlik, intizom, ijrochilik, punktuallik, ozodalik, saranjonlik, qonunga itoat qilish, mehnat sevalik, matonat qat'iyatlik, so'ziga sodiqlik, halollik, ehtiyotkorlik, oqilonalik, teran fikrlash, tejamkorlik, omilkorlik</p> <p>“Zaif” sifatleri: qayishmaslik, sustkashlik, sovuq munosabar, bir tomonlamalik, qat'iyatsizlik, qaysarlik, konservatizm, yangilikka qatshilik qilish, tavakkal qilishdan qo'rqish, nursiz fantaziya, “yopilib” olish, mayda-chuydalarga ahamiyat qaratuvchi, xasislik, byurokratiyaga moyillik.</p>	
<p style="text-align: center;"><b>Temperament</b></p> <p>Flegantik. Introversiya o'rtacha. Emotsional barqarorlik yuqori. Ijtimoiy ma'qullash mativatsiyasi yuqori . Noverbal intellekt (IQ) o'rtacha 95 (T-22) Fe'l-atvorining namoyon bo'lishi. Juda sustkash, befarq. O'ziga ishonuvchan. Atrofdagilarga nisbatan qattiq talabchan. Ko'pincha sust qaysarlikni namoyon qiladi. Juda batartib, mayda-chuydalarda e'tiborli. Fikr-mulohazali, sovuqqon. Begona fikrga befarq qaraydi. Hissiz, odatiy ishlar va bir xil turmush tarzini afzal ko'radi. Nutq intonyatsiyasi kam ifodali. Did- farosati past. <b>Tuzatish yo'llari.</b> O'smirda shunday sezgini hosil qilish kerakki, unga murabbiy qiziqishini his ettirish lozim , hayot ikir-chikirlari bilan qiziqib ko'rish lozim, qatiyatini bilish zarur. Jamoat topshiriqlari orasida tartib bilan bajarish taqazo e'tiladiganlarni tanlash lozim ( jurnal yoki tabel yurutish,</p>	

nimanidir qayd qilib borish va h.k) Ijrochiligini maqtash kerak. Mashg'ulotlarni tanlashda e'tibor berish ( guruhli sport turlari yoki oddiy havaskorlikni emas, balki individual mashg'ulotlarni tanlash).

17- jadvalda sport mahoratini takomillashtirish guruhi futbolchilarining individual tavsiflari hamda tuzatish vositalari berilgan.

Keltirilgan tavsiflar shaxslashtirilgan yondashuv asosini tashkil qiladi. Futbolchilarning mashg'ulot jarayonida individual yondashuv ularning imkoniyatlarini ochib berish hamda oz kuchiga bo'lgan ishonchni shakillantirish uchun muhim instrument hisoblanadi.

### **XULOSALAR**

1. Ko'pgina professional klublarda tahliliy bo'limlar murabbiylar shtabiga turli xil ma'lumotlar, jumladan yuqori sport mahoratiga ega futbolchilarning harakat faolligi tahliini taqdim etib turishi aniqlangan bo'lib, ularda "Polar Team2" tizimidan foydalaniladi. Mazkur tizim GPS-signallar orqali maxsus datchiklar yordamida o'yinchining joylashuvini kuzatish imkonini beradi, bir o'yinda bir yarim milliondan ortiq belgilar to'planadi. Shuningdek, futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini qayd etish va tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy "Instat" tahliliy tizimi qo'llaniladi.

